

ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS AND SAFETY OF MINI
PERCUTANEOUS NEPHROLITHOTRIPSY

Khikmatillo Y. Ismailov
Nematjon M. Kavulyazov
Shuhrat I. Giyasov

Tashkent State Medical University. Tashkent, Uzbekistan.

Abstract: Nephrolithiasis is a common disease in modern urology, reducing patients' quality of life and requiring surgical intervention. Mini percutaneous nephrolithotripsy has emerged as a result of advancements in percutaneous surgical methods, allowing for reduced surgical trauma through the use of smaller diameter puncture channels.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ И БЕЗОПАСНОСТИ МИНИ ПЕРКУТАННОЙ
НЕФРОЛИТОТРИПСИИ

Хикматилло Ю. Исмаилов
Неъматжон М. Кавулязов
Шухрат И. Гиясов

*Ташкентский государственный медицинский университет. Ташкент,
Узбекистан.*

Аннотация: Нефролитиаз является распространённым заболеванием в современной урологии, снижая качество жизни пациентов и требуя хирургического вмешательства. Мини перкутанная нефролитотрипсия возникла в результате развития перкутанных хирургических методов, позволяя снизить хирургическую травматизацию за счёт использования каналов меньшего диаметра.

MINI PERKUTAN NEFROLITOTRIPSIYANING SAMARADORLIGI VA
XAVFSIZLIGINI BAHOLASH

Xikmatillo Y. Ismailov
Ne'matjon M. Kavulyazov
Shuhrat I. Giyasov

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya: Nefrolitiaz zamonaviy urologiyada keng tarqalgan kasallik bo'lib, bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi va jarrohlik aralashuvlarini talab qiladi. Mini perkutan nefrolitotripsiya so'nggi yillarda perkutan jarrohlikning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, kichik diametrli punksiya

kanallaridan foydalanish orqali bemorlarga yetkaziladigan jarrohlik travmasini kamaytirish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Nefrolitiaz hozirgi kunda urologik kasalliklar orasida muhim muammo hisoblanib, buyrakda toshlarning paydo bo'lishi bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi hamda tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Perkutan nefrolitotripsiya an'anaviy ochiq jarrohlikka nisbatan minimal invaziv usul bo'lib, bemorlarga nisbatan kamroq jarrohlik travmasini yetkazadi. Oxirgi yillarda mini perkutan nefrolitotripsiya usulining rivojlanishi tufayli kichik diametrli punksiya kanallaridan foydalanish orqali asoratlarni kamaytirish va bemorlarning reabilitatsiya jarayonini tezlashtirish imkoniyati yuzaga keldi. Ushbu usulning xavfsizligi va samaradorligini o'rganish urologiya sohasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mini perkutan nefrolitotripsiya xavfsizligi va samaradorligini baholash, uning perkutan nefrolitotripsiya an'anaviy usullariga nisbatan afzalliklarini aniqlash hamda bemorlarda jarrohlikdan keyingi tiklanish jarayonini o'rganish.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqotda buyrak tosh kasalligi tashxisi qo'yilgan va mini perkutan nefrolitotripsiya o'tkazilgan 50 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi:

- I-guruh (asosiy) – mini perkutan nefrolitotripsiya qo'llangan 25 nafar bemor.
- II-guruh (nazorat) – an'anaviy perkutan nefrolitotripsiya o'tkazilgan 25 nafar bemor.

Bemorlarning operatsiyadan keyingi asoratlari, tiklanish jarayoni, og'riq sindromi, kasalxonada yotish muddati va operatsiyadan keyingi buyrak funksiyasining o'zgarishlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida klinik-anketaviy, laborator, rentgenologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Mini perkutan nefrolitotripsiya o'tkazilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi og'riq sindromi kamroq bo'ldi, jarrohlikdan keyingi reabilitatsiya muddati esa nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada qisqardi. Klinik kuzatuvlarga ko'ra, mini perkutan nefrolitotripsiya bemorlar uchun kam invaziv, xavfsiz va samarali usul ekanligi aniqlandi. Operatsiyadan keyingi yondosh asoratlar, jumladan, qon ketish va og'ir infeksiyalar nazorat guruhiga nisbatan kamroq uchradi.

Xulosa. Mini perkutan nefrolitotripsiya buyrak toshlarini davolashda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan xavfsiz va kam invaziv usul hisoblanadi. Ushbu texnika reabilitatsiya davrini qisqartiradi, operatsiyadan keyingi asoratlar xavfini kamaytiradi va bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari mini perkutan nefrolitotripsiya usulining keng klinik amaliyotga joriy etilishi samarali ekanligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Türk C., Neisius A., Petřík A., et al. EAU Guidelines on Urolithiasis. 2022.

2. Hyams E.S., Munver R. The rationale for mini-PCNL techniques. Current Urology Reports. 2010.
3. Wright A.E., Rukin N.J., Somani B.K. Miniaturised PCNL: A review of current literature. Urolithiasis. 2016.